



O‘Z-O‘ZINI TARBIYALASH VA O‘Z USTIDA ISHLASH.

Annaqulova Shaxlo Baxtiyor Qizi

Baxtiyorova Munisa Norbekovna

Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxsning o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z ustida ishlash jarayonining pedagogik-psixologik asoslari tahlil qilingan. O‘z-o‘zini tarbiyalash insonning ichki intilishi, maqsad sari yo‘naltirilgan ongli faoliyati sifatida talqin etiladi. Shuningdek, o‘qituvchi va talaba shaxsida o‘zini anglash, irodani mustahkamlash, ma‘naviy barkamollikka erishishda o‘z-o‘zini tarbiyalashning ahamiyati ochib berilgan. O‘z ustida ishlash esa kasbiy mahoratni, bilim va malakalarni doimiy ravishda takomillashtirishni anglatadi.

Tayanch tushunchalar: O‘z - o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zni o‘rganish, o‘z - o‘zini nazorat, qobiliyat, tahlil, didaktika, kamunikatsiya, holat

O‘z-o‘zini tarbiyalash — bu shaxsning o‘z xulq-atvori, axloqi, bilim darajasi, hissiyati va maqsadlarini ongli ravishda boshqarishga, ijobiy fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan jarayondir. U insonning ichki ehtiyoji, o‘zini anglash darajasi va hayotiy pozitsiyasi bilan chambarchas bog‘liq.

O‘z ustida ishlash esa shaxsning o‘z kasbiy, intellektual va ijtimoiy salohiyatini rivojlantirish yo‘lida muntazam harakat qilishi, yangi bilimlarni o‘zlashtirishi, tajriba orttirishi jarayonidir. Pedagog uchun bu — dars jarayonini takomillashtirish, yangi metodikalarni o‘rganish, muloqot madaniyatini rivojlantirish va o‘z faoliyatini tahlil qilib, doimiy ravishda yuksaltirishni anglatadi.

Shu bois o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z ustida ishlash pedagogik faoliyatda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular shaxsiy va kasbiy barkamollikka olib boruvchi asosiy omillardandir.

O‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z ustida ishlashning mohiyati. O‘z - o‘zini tarbiyalash - bu insonni barkamollikka erishish maqsadida ongli va maqsadli faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, uning diqqat markazida mukammallikka intilish va unga erishish nuqtai - nazari yotadi. Tarbiya maqsadlari - o‘z - o‘zini tarbiyalashning maqsad va moxiyati o‘qituvchi



shaxsining kasbiy sifatlarini tarbiyalashga [keng qamrovli dunyoqarashni](#), jismonan va ma'nan sog'lom ruhiy shakllantirishga qaratilishi lozim. O'z - o'zini tarbiyalash vazifalari - tarbiya maqsadiga erishish yo'lida lozim bo'lgan xulq - atvor, faoliyat, say harakatlar majmuasini tashkil etadi. O'z - o'zini tarbiyalash vositalari - tarbiya maqsadi va oqibatini nazarda tutgan holda shaxsning o'ziga ta'sir o'tkaza olish usullari, qurollaridir. O'z - o'zini tarbiyalash natijalari - o'z - o'zini tarbiyalash, o'z - o'ziga ta'sir o'tkazish oqibatida shaxs yoki jamoada [ro'y bergan ijobiy o'zgarishlar](#), erishilgan yutuq va muvaffaqiyatlar, kechinmalarni bilish, sezish, his qilish, o'z - o'zini tarbiyalashning natijasidir. O'z - o'zini anglash shaxsning o'z imkoniyatlarini sinab ko'rish jarayonida amalga oshiriladi. O'z - o'zini nazorat qilish - o'quvchilarning o'quv faoliyatini muhim elementlaridan biridir. O'z - o'zini nazorat qilish uslublarini o'zaro moxirona biriktirish barcha o'quv fanlari bo'yicha ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. O'z - o'zini tahlil [qilish - o'z shaxsining](#), fazilatlarini tahlil qilishga, xatti - harakatlari haqida o'ylashga o'rgatadi. O'z - o'zini nazorat qilish uchun o'quvchi o'zining yurish turishi, intizomi, ijobiy odatlarining [ortib borishi va aksincha](#), salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

Respublikamiz ta'lim - tarbiya tizimini isloh qiluvchi davlat xujjatlari inson omiliga qayta talablar kuyib, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, boy moddiy, intellektual - ma'naviy merosimiz asosida komil insonni tarbiyalashni maqsad qilib ko'ymoqda. [Inson barkamolligi](#), uning ma'naviy - ma'rifiy salohiyati, umuminsoniy fazilatlarini va sifatlarini, kasbiy etukligi bilan o'lchanadi. Bugungi pedagogik ta'lim konseptsiyasi bolaning intellektual potentsialini rivojlanishi uchun zarur bo'lgan shart - sharoitlarni yaratish, iqtidorli bolalar bilan ishlash imkoniyatlarini kengaytirish tafakkurini rivojlantirish masalalariga karatilgandir.

O'z-o'zini tarbiyalash va o'zini o'zi takomillashtiri yo'llari. O'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalashi uchun, avvalo o'zini atroflicha chuqur o'rganishi, o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarni ko'ra olishi kerak. O'z-o'zini o'rganish va boshqa kishini anglash uchun ham zarurdir. Boshqalarning yutuqlarni o'rganmay, o'zini boshqalar bilan qiyos qilmay turib, o'zini shaxs sifatida o'rganish mumkin emas. O'zini anglash, o'zini baholash xususiyati boshqa kishilar bilan munosabat jarayonida, birgalikdagi faoliyat vaqtida tarkib topadi.

K.D Ushinskiy o'z-o'zini tarbiyalash orqali quyidagilarga erishilishini ta'kidlab o'tgan: 1) xotirjamlik;

2) so'zda ishonch va tug'ilikka;

3) xatti-harakatga mulohaza bilan yondashish;

4) qat'iylik;



5) o‘zi haqida sababsiz biror og‘iz gapirmaslik;

6) lozim narsalardangina foydalanish;

7) har kuni kechasi o‘ziga o‘zi hisobot berish;

8) biror marotaba maqtanmaslik;

O‘z-o‘zini tarbiyalash o‘z faoliyatini tahlil qilishdan va o‘z shaxsini takomillashtirishdan boshlanadi. O‘qituvchi o‘z ustida ishlashi, o‘z-o‘zini tarbiyalashda quyidagi usullardan foydalanadi:

O‘z-o‘zini bilish jarayoni o‘qituvchining pedagogik mahorati doirasida ma’lumotlarni qayd qilish darajasida kechadi, bunda refleksiyaning passiv shakli ustuvorlik qiladi. O‘qituvchi pedagogik faoliyatida yuzaga kelayotgan turli qiyinchiliklar va muammolarning sabablarini, erishilayotgan yutuqlar va natijalarni shunchaki qayd qilib boradi.

O‘z-o‘zini anglash jarayoni o‘qituvchining o‘z faoliyati va unda o‘ziga nisbatan «metapozitsiya» (noaniq pozitsiyada)da turib, o‘ziga tashqaridan qarash, o‘zini kuzatish malakasini ko‘zda tutadi. Bunda, interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarga o‘tishi) hodisasi amalga oshadi, kasbiy qiyinchiliklarning kelib chiqish sabablari rasmiylashtiriladi; faoliyatdan ko‘zlanadigan asosiy maqsad aniqlanadi, refleksiv – «MEN» shakllanadi. Bu o‘qituvchining dolzarb rivojlanish zonasi bilan bog‘liq.

O‘z-o‘zini aniqlashtirish jarayonida boshlang‘ich daraja kasbiy ehtiyojlarni hisobga olib belgilanadi va jadal imkoniyatlar asosida faoliyat rejalashtiriladi. Strategik, taktik va tezkor vazifalar shakllantiriladi. Haqiqiy «MEN» va ideal «MEN» nisbatlanadi. Bu o‘qituvchining eng yaqin rivojlanish darajasi bilan bog‘liq.

O‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida o‘qituvchining kasbiy faoliyati davomida takomillashtirilgan pedagogik mahorati, refleksiyalangan (ya’ni avval foydalanilgan va ularning samaradorligini baholash natijasida tobora optimal bo‘lib chiqqan metodlar) harakat usullari va metodlarining o‘sishi sodir bo‘ladi.

O‘z – o‘zini nazorat qilish o‘qituvchi pedagogik faoliyati jarayonida nazariy va amaliy tajribalar asosida, o‘z – o‘zini kasbiy jihatdan nazorat qilib, pedagogik mahoratini yanada takomillashtirib borishning ikkinchi shakli boshlanishini nazarda tutadi.

Turli sifatlar va shaxsning orttirilgan tajribasi, shu tajriba asosida yotgan yutuqlariga bog‘liq holda turlicha bo‘lishi mumkin. Ya’ni, ayni biror ish, yutuq yuzasidan ortib ketsa, boshqasi ta’sirida - aksincha, pastlab ketishi mumkin. O‘z-o‘ziga baho nafaqat haqiqatga yaqin (adekvat), to‘g‘ri bo‘lishi, balki u o‘ta past yoki yuqori ham bo‘lishi mumkin. Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, maktablar motivatsiya, imkoniyatlar va



shaxsiy muvaffaqiyatga intilish dargohiga aylanishi uchun ta'limni o'quvchining o'z-o'zini kashf etish vositasiga aylantirish lozim. Bu esa eng birinchi navbatda, millat ko'zgusi - muallimlarning bilim va innovatsion salohiyatiga bog'liqdir.

“Men” - obrazi va o'z-o'ziga baho berish.

Bir shaxsda o'z-o'ziga nisbatan baholar tizimi shakllanadiki, bu tizim ham obrazga mos tarzda har xil bo'lishi mumkin. Bu baho aslida shaxsga boshqalarning real munosabatlariga bog'liq bo'lsa-da, aslida u shaxs ongi tizimidagi mezonlarga, ya'ni uning o'zi subyektiv tarzda shu munosabatlarni qanchalik qadrlashiga bog'liq tarzda shakllanadi. Masalan, maktabda bir fan o'qituvchisining bolaga nisbatan ijobiy munosabati, doimiy maqtovlari uning o'z-o'ziga bahosini oshirsa, boshqa bir o'qituvchining salbiy munosabati ham bu bahoni pastlatmasligi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Hasanboyeva O., Xoliqberdiyev K. “Pedagogika”. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflar jamiyati, 2019.
3. Azizxo'jayev N.N. “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat”. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2016.
4. Musurmonova O. “O'z-o'zini tarbiyalashning psixologik mexanizmlari”. — Toshkent: Universitet, 2021.
5. To'xtaboev B. “Pedagogik faoliyat va o'z ustida ishlash madaniyati”. — Toshkent: Fan va texnologiya,